nish jarayonida yuz beradi. Bilim berish bosqichida o‘qituvchi tildagi tushunchani, hodisalarni tushuntirishda ona tiliga suyanishi kerak. Bu materialni mustahkam va ongli o‘zlashtirish tushunchasini beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Orfografik materiallarni berishning integratsiyalashgan yo‘li, pedagogik tomondan, avvalo, matn beriladi, keyin savollar qo‘yiladi, kerakli orfogramma aniqlanadi, qoida bildiriladi va tushuntirish namunalari beriladi. Bu qoidani mustahkamlashga yordam beradigan jaadvallar, savollar, grafik orfogrammani ajratish ko‘rinishidagi didaktik material bo‘lishi mumkin. Grammatik qoidalarni o‘zlashtirish so‘zlarni yodlashdan iborat emas, talabaning bilimlarni o‘zlastirish va amalda qo‘llanish bo‘yicha faol fikrlash vazifasidan iborat. Barcha ishlar tarbiyaviy vazifalarga javob beradigan, mazmuni va shakli bo‘yicha talabalar uchun tushunarli bo‘lgan materialda amalga oshirilishi kerak. O‘qitivchi talabalarning nutqi to‘g‘ri, yozishi savotli bo‘lishiga harakat etishi kerak.

Pedagogikada eng ahamiyatli didaktik tamoyillardan biri – talabalarning faolligi sifatida qaraladigan erkinligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Mustaqil taa’lim o‘qitivchining to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirokisiz, biroq uning vazifasi bo‘yicha amalga oshiriladi; bunda talaba o‘z harakatlarini ko‘rsatib, o‘zining aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini shu yoki boshqa shaklda ko‘rsatib, topshiriqqa qo‘yilgan maqsadga erishishga ongli ravishda intiladi.

Xususiyatiga ko‘ra, orfografik qoidalarni quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin: 1) qoida-ko‘rsatma: fakt tasdiqlanadi – qoidalarni berishning eng oddiy shakli, bunda til materialini tavsiya etishning asosiy shakli namuna hisoblanadi; 2) qoida-qo‘llanma: so‘zni to‘g‘ri yozish uchun zarur bo‘lgan shart bayon etiladi. Agar talaba orfografik qoidalarni o‘rganish natijasida ayrim holatlarni umumlashtira olsa va qoidani qo‘llay olsa, bu orfogramma va orfografik qoidani tushunish va o‘zlashtirishning ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Баранов М.Т. Методика преподавания русского языка. М., 1990, с. 34.

(2). Жуйков С.Ф. Умственная деятельность школьников при развивающем обучении русскому языку. “Начальная школа”, М., 1991, № 10, с. 51.

(3). Жедек П.С., Репкин В.В. Из опыта изучения закономерностей русской орфографии. Обучение орфографии: Сборник статей.

(4). М.М.Разумовская. М., “Просвещение”, 1974, с. 131.

Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich (Urganch davlat universiteti roman-german filologiyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; ruzmetovxamid8@gmail.com),
Shomurotova Nigora Otabayevna (Urganch davlat universiteti xorijiy filologiya fakulteti 2-bosqich magistranti; shomurotovanigora5009@gmail.com)

SHE’RIY TARJIMADA MILLIY KOLORITNING AKS ETISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Omon Matjon she’rlarida qo‘llangan milliy koloritning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Shoirning bunday birliklardan mahorat bilan foydalana bilishi, shuningdek, badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, she’rning koloritlik ruhini ta’minlash, she’r badiiyatini kuchaytirish kabi maqsadlarda eskirgan so‘zlarni qo‘llash usuli tadqiq qilinadi. Shuningdek, milliy koloritning badiiy tarjima hamda adabiyotda tutgan o‘rni, vazifalari, qo‘llanilishi va shakllari haqida so‘z boradi. Shu bilan birga, Omon Matjon she’rlaridagi milliy kolorit tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, milliy kolorit, she’riyat tili, tarjima, mumtoz adabiyot, badiiy tafakkur, ijtimoiy-axloqiy g‘oya, badiiy takror, she’r g‘oyasi va shakli, badiiy tasvir vositasi,mazmun va shakl.*

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО КОЛОРИТА В ПОЭТИЧЕСКОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности передачи национального колорита в поэзии Омона Матжона. Исследуется мастерство поэта в использовании элементов с национально-культурной окраской, а также методы применения устаревших слов с целью реального изображения действительности эпохи, обеспечения колоритности стихотворения и усиления художественности. Также изучается роль, задачи, применение и формы передачи национального колорита в художественном переводе и литературе. Кроме этого, анализируются элементы национального колорита в стихах поэта.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, национальный колорит, язык поэзии, перевод, классическая литература, художественное мышление, социально-нравственная идея, художественное повторение, идея и форма стихотворения, средства художественного изображения, содержание и форма.*

THE REFLECTION OF NATIONAL COLOR IN POETIC TRANSLATION

Annotation. *This article discusses the distinctive features of traditional color used in the poems of Omon Matjon. It explores the poet’s brightful use of these elements and examines the method of employing*

historical words for realistic depiction of the realities of the era being described in artistic texts, ensuring the chromatic spirit of the poem and improving its artistic quality. Furthermore, addresses the role and functions of national color in artistic translation and literature as well as its applications and forms. Additionally, it analyzes the national colors present in Omon Matjon's poetry.

Keywords: *linguopoetics, national color, language of poetry, translation, classical literature, artistic thinking, social-moral idea, artistic repetition, idea and form of poetry, means of artistic depiction, content and form.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunda O'zbekistonning dunyoga yuz tutishi, chet ellarda uning madaniyat va adabiyot kunlari, haftaliklari bo'lib o'tishi o'zbek xalqining milliy qiyofasini xorijliklarga tanishtirishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'zbek yozuvchilarining asarlari xorijiy tillarga, jumladan, fransuz tiliga, shuningdek, fransuz tilidan o'zbek tiliga ko'plab o'girilayotgani ikki buyuk xalqning o'zaro yaqinlashayotganidan nishonadir.

Joriy yilning 11–13-mart kunlari Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan Prezidentimiz Shavkat Mirziyayev rasmiy tashrif bilan Fransiya davlatida bo'ldi. Davlatimiz rahbarini Fransiyaning Milliy ta'lim, oliy ta'lim va milliy tadqiqotlar vaziri va boshqa rasmiy kishilar tomonidan kutib olinishi va Parij shahrida ikki mamlakatlar ta'lim tizimi xodimlari o'rtasida o'tkazilgan hamkorlik uchrashuvlari va ularda o'zaro tuzilgan ko'plab ta'lim shartnomalari qatorida ilmiy, ilmiy tadqiqot ishlarini qiyosiy o'rganish, badiiy asarlar tarjimalari borasidagi kelishuvlar mamlakatlar o'rtasidagi yangi ilmiy yo'nalishlarga va izlanishlarga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, Prezidentimizning UNESCO Bosh direktori Odri Azule xonim bilan uchrashuvida ham mamlakatlar o'rtasidagi ilmiy aloqalarni yangi bosqichlarga olib chiqish masalalariga ham e'tibor qaratilganligi ikki do'st mamlakatni ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shishiga ishonamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Uzoq o'tmishdan buyon tarjima bir-biriga begona xalqlarni o'zaro yaqinlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qilgan. Tarjima orqali xalqlar bir-birlari bilan muomala qilganlar, olimlar bir-birlari bilan fikr almashganlar, adiblar bir-birlari bilan muloqotda bo'lganlar. Tarjimon esa faqatgina o'zga tilni yaxshi o'zlashtirgan kishi emas, balki ikki bir-biriga noma'lum xalqni yaqinlashtiruvchi, xalqlarga madaniyati, dini, urf-odatlari hamda milliy marosimlaridan xabar bera oladigan aloqachi, deya olamiz. Tarjima tarixidan shu narsa aniqlanganki, ilm-fan, madiyat rivojlangani sayin tarjima san'ati ham rivojlana boradi. XIX asrda badiiy asarlar kitobxonlar talab ehtiyojiga qarab tarjima qilingan. Tarjima qilingan badiiy asarlar sharq xalqlariga mashhur shoir va yozuvchining qalamiga mansub bo'lgan biroq asta-sekinlik bilan sharq klassikasi yutuqlarini o'zlashtirgan adabiyot yuzaga keldi, shundan keyingina asarlarni tanlab olib tarjima qilish imkoniyati paydo bo'lgan. Buning natijasida esa tarjimonlarning qaysi adabiy janrlarga qiziqishi masalasi yuzaga keladi, ana shunday bir paytda axloqiy hikoyalar, ishqiy-romantik dostonlar, afsonaviy qissalar, hajviy asarlar, she'riy tarjima sharq nasri hamda nasr-nazm aralash yozilgan asarlar tarjimasiga talab orta borgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolamizda Omon Matjon she'rlaridagi milliy koloritlar o'rganilib, tahlil qilinadi. Dastavval, milliy kolorit atamasiga to'xtalib o'tamiz: Kolorit tushunchalariga ta'rif beradigan bo'lsak, "Kolorit" so'zi lotincha "kolor", italiyancha "kolorito" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "rang, bo'yoq, manzara, jilo" kabi ma'nolarni anglatadi. "Kolorit" deganda tasviriy san'atda real, haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro munosibligi tushinilsa, badiiy tarjimada bu iborani biror narsaning o'ziga xos belgi va xususiyatlari majmuyi, deyish mumkin. Chunki voqelikni ta'sirli tasvirlash vositasining tarkibiy qismi bo'lgan "Kolorit" asarning g'oyasi, mazmuni, davri, uslubi hamda muallifning shaxsiga bo'g'liq bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, "Kolorit" voqealikni real va ifodali tasvirlasa ranglarning o'zaro mutanosibligi, shuningdek, kolorit biror-bir narsaning o'ziga xos tomonlar majmuyini anglatadi.

Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklardir. Har bir shaxsning millatparvarligi, avvalambor, uning o'z millatiga, tiliga, an'analariga, madaniyatiga, urf-odatlariga va rasm-rusumlariga bo'lgan munosabatida namoyon bo'lishi hech kimga sir emas. Millatning yuksalishi – o'zbek millatining gullab-yashnashi tarafdori bo'lgan har bir inson o'z xalqining kamchiliklarini ham ko'ra olishi zarur.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Shoirning aksar to'plamlaridagi she'rlarida badiiy takrorlarda milliy bo'yoqdorlikdagi fikrlari teranroq ifodalangandek, go'yo, she'rlarning g'oyasi va shakli o'rtasidagi mutanosiblikni ifodalovchi tushunchalar takror so'zlar vositasida obrazli qiyofa kasb etadi, shu bilan birga, she'rlardagi ohangdorlik ta'minlangan. Masalan: shoirning "Boshqalardek sevishdik biz ham" mis-

rasi bilan boshlanuvchi she'rida anafora, epifora kabi figuralar vositasida ma'naviy yuksaklik va qadr-qimmatni ifodalovchi obrazlarda namoyon bo'ladi.

Boshqalardek sevishdik biz ham,
Kuyib yurdik boshqalar kabi.
Bu savdoni baxt bildik biz ham,
Baxtdir, dedik visol, yor labi.
Boshqalardek duch kelib qolsak,
Olislardik ming bor qayrilib.
Mana, biz ham bebaxt, beqarsak
Boshqalardek ketdik ayrilib.[1]

Tarjimada:

Comme les autres, nous nous sommes aimés,
Consumons-nous, d'espoir charmé.
Ce destin, bonheur nous semblait,
Un baiser, disions-nous, comblait.
Comme les autres, si l'on se croise,
On s'évite, mille fois on ose.
Et nous voici, sans joie, sans flamme,
Comme les autres, partis sans âme.

She'r to'rtlik shaklida yozilgan bo'lib, har bir misra, taxminan, bir xil uzunlikka ega. U qofiyalangan bo'lib, qofiya sxemasi AABB tarzida qurilgan. Bu uslub she'rni ritmik va ohangdorligini ta'minlaydi.

Omon Matjon yuqorida keltirib o'tgan bandda milliy koloritning yorqin namunasini ko'rishimiz mumkin. "Baxt, visol, olis sevgi" tushunchalari orqali milliylikni aks ettirgan. She'r sevgi va uning o'tkinchiligi haqida. Dastlab, sevgi yorqin his-tuyg'ular bilan boshlanadi, biroq vaqt o'tishi bilan, o'sha ehtiros va tuyg'ular so'nadi. Oxirgi to'rtlikda sevishganlarning ajralishi va bir-birlariga begona bo'lib qolishlari tasvirlangan. She'rning asosiy g'oyasi sevgi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi va ba'zan butunlay yo'q bo'lishi haqidadir.

Qiyoslash ("Comme les autres" – "Boshqalar kabi"). She'r muallifi sevgi tarixini oddiy hodisa sifatida tasvirlaydi. Bu sevgi va ajralish barcha odamlar uchun umumiy holat ekanligini ko'rsatadi.

Metafora ("Consumons-nous, d'espoir charmés"). Bu yerda sevgi olovga o'xshatilgan, ya'ni insonlar o'z sevgisida yonib ketadi.

Qarama-qarshilik ("sans joie, sans flame"). Dastlabki ehtirosli muhabbat oxirida o'chib, bo'm-bo'sh qolgani aks ettirilgan.

Shoirning ba'zi she'rlarida davr tilini nazarda tutishi bilan ham xarakterlidir. Tarixiy mavzularga bag'ishlangan she'rlarida neologizmlarni ishlatib bo'lmasligi, aksincha, bugungi kun mavzulariga taalluqli she'rlarda ham arxaik so'zlarni qo'llash bugungi kun o'quvchisiga qiyinchilik tug'dirishi, tabiiy. Omon Matjon o'zining Xiva xonligi davri voqealarini tasvirlovchi "Nurjon botir" she'rida *navkar* so'zi o'rnida *askar* leksemasi qo'llasa bo'lmasligini yaxshi sezgan.

Oddiy misol, birdan uning loyga botdi ulovi,
Quruqlikka chiqarolmay qirqta navkar ovvora.

Tarjimada:

Un simple exemple : son cheval s'enfonça dans la boue,
Quarante poilus ne purent le tirer à sec.

Bu she'r qisqa, lekin chuqur ma'noga ega bo'lgan falsafiy ifodadir. U tashbeh va ramzlar orqali hayotiy haqiqatni aks ettiradi. She'r ikki misradan iborat bo'lib, u epigramma yoki hikmatli satr shaklida qurilgan. Qofiya mavjud emas, lekin ritmik uyg'unlik saqlangan. She'r tashbeh va allegoriyalar yordamida murakkab hayotiy vaziyatlarni yoritadi: Birinchi misrada "ulov loyga botishi" bu inson yoki jamiyatning qiyin ahvolga tushib qolishini ifodalaydi. Ikkinchi misrada "qirqta navkar ham quruqlikka chiqarolmasligi" – muayyan holatlarda, hatto katta kuch va yordam ham muammoni hal qila olmasligini anglatadi. Bu fikr insonning ba'zi taqdiriy sinovlari shunchalik og'ir bo'lishi mumkinki, hatto ko'p odamlar yordami ham yetarli bo'lmasligini ko'rsatadi. She'r qisqa bo'lsa-da, chuqur falsafiy ma'no bilan boyitilgan. U inson hayotidagi ba'zi qiyinchiliklarning hal qilinishi mushkul ekanini va ba'zida hech qanday tashqi yordam ham ye-

[1] Omon Matjon. "Boshqalardek sevishdik biz ham" she'ri. 1967-yil.

tarli emasligini ko‘rsatadi. Bu hayotning nohaqligi yoki insonning ojizligi haqidagi falsafiy fikrga olib kelishi mumkin.

Bu misrada qo‘llanilgan *navkar* so‘zi bugungi kunda bizning nutqimizda uchramaydi, uning o‘rnida biz *askar, harbiy* kabi so‘zlarni ishlatamiz. Xuddi shuningdek, fransuz tiliga tarjima qilinganda ham biz *soldat* so‘zi o‘rnida *navkar* so‘zi bilan davri muqobil keladigan *poilu* so‘zini qo‘llashimizga to‘g‘ri keladi. Bu so‘z fransuzlarda Birinchi jahon urushidan bir asr avval paydo bo‘lganligi va shu davr adabiyotidagi so‘z hisoblanadi. Shu bilan birga, fransuzlar Napaleon davrida *grognard,* XVII asrda esa *soudard* kabi so‘zlardan ham foydalanishgan.

Omon Matjonning “G‘amlarning bariga to‘zdim chidadim” satri bilan boshlanuvchi she’ri 1985-yilda chop qilingan muallifning “Hayot kitobi” to‘plamidan olingan. Shoir bu she’rida milliy koloritni aks ettirishda stilistik vositalardan mohirona foydalanganligini ko‘ramiz.

G‘amlarning bariga to‘zdim – chidadim,
Namlarning bahrida suzdim – chidadim,
Damlarning shahdidan o‘zdim – chidadim,
Kelmading.[1]

Tarjimada:

J’ai enduré, ployant sous le poids des chagrins,
J’ai nagé dans l’océan de mes larmes sans fin,
J’ai dépassé le temps qui file en son chemin,
Tu n’es pas venue.

She’rning fransuz tili tarjimasida quyidagi stilistik usullar qo‘llanilgan:

Obrazlilik va poetik ifoda. Tarjima asliyatdagi poetik obrazlarni saqlagan holda, ularni yanada boyitgan. Masalan, *namlarning bahrida suzdim* iborasi *l’océan de mes larmes* (ko‘z yoshlarim okeani) sifatida tarjima qilingan. Bu obrazni kuchaytirib, hissiy ta’sirni oshiradi.

Parallelizm va ritmni saqlash. Har bir satrda takrorlanadigan *J’ai* (Men) so‘zi originaldagi *chidadim* so‘zining takrorlanishiga, mos ravishda, parallelizm yaratadi. Bu usul she’rning ritmik tuzilishini saqlashga yordam beradi.

Metaforik amplifikatsiya (kengaytirish). Asliyatdagi qisqa metaforalar kengaytirilgan, masalan, “damlarning shahdidan o‘zdim” iborasi *J’ai dépassé le temps qui file en son chemin* (vaqtning o‘tib ketayotgan yo‘lidan o‘tdim) tarzida kengaytirilgan. Bu tarjimada ma’no chuqurligini ta’minlaydi.

Ekspressivlikni oshirish. Tarjimada hissiy bo‘yoqlar kuchaytirilgan, masalan, *chagrins* (dardlar), *sans fin* (cheksiz) kabi so‘zlar qo‘llanilib, originaldagi hissiy holat yanada ta’sirli aks ettirilgan.

Ravonlik va moslashuvchanlik. Tarjimon nasriy va she’riy elementlarni uyg‘unlashtirgan holda, fransuz tilining talaffuz va ohangiga mos bo‘lgan shakl yaratgan. Bu usul tarjimani tabiiyroq qiladi.

Erkin ijodiy yondashuv. Tarjimon asliyatga to‘liq bog‘lanib qolmasdan, ba’zi joylarda o‘z ijodiy uslubini qo‘shgan. Masalan, *kelmading* so‘zining sodda ifodasi *Tu n’es pas venue* shaklida hissiyot bilan boyitilgan.

Ushbu usullar tarjimada asliyatning mazmuni va ruhini saqlagan holda uni yangi tilda estetik jihatdan boyitishga xizmat qilgan. Bu tarjimada she’rning mohiyatini ochib berish uchun fransuz tilida “in” qofiyasi dastlabki uch misrada aks ettirilgan, so‘ngra she’rni ritmini buzadigan qisqa misra keladi va bu o‘zbekcha she’riyatda aks etadigaan holatdir. She’rda g‘am-tashvishlar og‘irligi ostida egilish, ko‘z yoshlarida suzish va tez o‘tib ketayotgan vaqtni ortda qoldirib ketish kabi poetik obrazlar iloji boricha saqlanib qolgan.

Shuni ta’kidlab o‘tish muhimki, she’riy tarjima har doim qiyinchilik tug‘diradi, chunki u asl ma’noga sodiqlik, she’riy shaklni saqlash va maqsadli tilda tabiiy eshitiladigan matnni yaratish o‘rtasida muvozanatni topishni taqozo etadi.

She’r sevgi va umidsizlik haqidagi his-tuyg‘ularni aks ettiradi. Muallifning ”chidadim” so‘zlari orqali u ko‘p narsalarga sabr-toqat qilganini, lekin oxir-oqibat kutilgan natijaga erisha olmaganini ko‘rsatadi. Takror: *Chidadim* so‘zining takrorlanishi she’rga ritm beradi va muallifning ichki kurashlarini kuchaytiradi.

Metafora. *Namlarning bahrida suzdim,* Damlarning shahdidan o‘zdim kabi iboralar muallifning his-tuyg‘ularini chuqurroq tasvirlash uchun ishlatilgan metaforalardir. *Mille peines* (ming azob) va *mille plaines* (ming dasht) kabi iboralar muallifning hayotidagi ko‘p to‘siqlarni va kurashlarni ifodalaydi. Bu simvollar orqali u o‘zining ruhiy holatini tasvirlaydi.

---

[1] Omon Matjon. “Hayot kitobi” to‘plami. 1985-yil.

Tarjima ilmi va amaliyotida o‘rganish qiyin bo‘lgan so‘zlar ko‘p uchraydi, ularning asosiy qismini milliy o‘ziga xos so‘zlar tashkil qiladi, ular xalqaro terminda “realiya”lar deb nomlanadi. Realiya ma’lum bir millat va elatga xos bo‘lgan narsa-hodisalarni tasvirlab beradigan lisoniy, badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalar hisoblanadi. Haqiqiy, moddiy hamda faktlarning qo‘llanilishiga “Realiya” desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Realiya–lotincha so‘z bo‘lib, “buyumga, narsaga oid” kabi ma’nolarni bildirardi. Boshqacha qilib aytganda, realiya milliy kolorit bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atama hisoblanadi: Muallifning ”Iymon yog‘dusi” (1991) she’riy to‘plamidagi ”Jannat o‘zbekiston jannating qani misrasi bilan boshlanuvchi she’rida mustabit tuzumning oxirgi yillarida millat taqdirini himoya qiluvchi voqeliklar haqida gap boradi.

Asl matn:

Jannat O‘zbekiston, jannating qani,
Shuncha mehnat qilding, mehnating qani,
Sig‘ingan, suyangan davlating qani,
Har daydi it seni talashga tushdi?
Hech kim o‘z moliga qo‘yolmas bahr,
Bor-u yo‘g‘imizni bilmaydi dunyo,
Hech kimdan so‘ramay-netmay ne yuho
Bu yurtdan qurbonlik yamlashga tushdi.[1]

Tarjimasi:

Ouzbékistan, où donc est ton ciel?
Tu as tant peiné, mais où est ton miel?
Où donc est l’État qui t’offrait un abri?
Les chiens errants te déchirent sans cri.
Nul ne peut dire: "Ceci est à moi",
Le monde ignore nos peines et nos lois.
Sans rien demander, cupide et fous,
Ils dévorent ce pays à genoux.

Ushbu she’r ijtimoiy va siyosiy mazmunga ega bo‘lib, unda shoir Vatan taqdiri, adolatsizlik va xalqning ahvoli haqida chuqur iztirob bilan fikr bildiradi. Mavzu va g‘oya: she’r O‘zbékistonning o‘ziga xosligini, uning tarixiy mashaqqatlarini va xalqining mustaqil yashashga intilishlarini ko‘taradi. Muallif davlatning ahvolini kritik qiladi va xalqning qiyinchiliklarga duch kelayotganini ta’kidlaydi.

Tashqi tasvir. *Ouzbékistan, où donc est ton ciel*? Bu satrda muallif Ouzbékistonni zamon bilan bog‘laydi va uning kelajagini so‘raydi. *Les chiens errants te déchirent sans cri* degan ibora esa, mamlakatdagi ijtimoiy muammolarni bildiradi; bu yerda qashshoqlik va ezilganlik holatlari ifodalanmoqda. *Où donc est l’État qui t’offrait un abri?* Bu satr davlatni ramziy jihatdan himoya qiluvchi kuch sifatida ko‘rsatadi, biroq u nafaqat himoya qilishda, balki xalqqa yordam berishda ham muvaffaqiyatga erisha olmayot-ganini anglatadi. She’rda *Nul ne peut dire: ‘Ceci est à moi’* deb aytilishi orqali mulkchilik tushunchasining yo‘qligi ta’kidlanadi, bu esa ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu fikr, shuningdek, jamiyatdagi adolatsizliklarga e’tibor qaratadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Omon Matjon o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri ekanligini yuqoridagi sh’erlari orqali ko‘rishimiz mumkin. Adabiyot xalqning hayotini aks ettirar ekan, uning ijtimoiy turmushdagi milliy va umuminsoniy jihatlari badiiy ifodalashi tabiiy holdir.

Badiiy tarjimada milliy kolorit o‘rganish bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Bu maqolani yozish jarayonida milliy koloritning tub negiziga yetib borishga harakat qilindi. Milliy koloritning badiiy tarjimadagi o‘rni, ilmiy va amaliy jarayonlarda ishlatilishi yuzasidan izlanishlar natijasi yoritildi. Bunday so‘zlarning tarjimada yuzaga keltirayotgan muammolari atroflicha o‘rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-dekabrdagi nutqidan keltirilgan.

(2). Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. T., ”Sharq”, 1998.

(3). Hojiyev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar. T., ”O‘zfanakadnashr”, 1963, 146-bet.

[1] Omon Matjon. “Iymon yog‘dusi “ she’riy to‘plami, 1991-yil.

(4). Omon Matjon. “Boshqalardek sevishdik biz ham” she’ri. 1967-yil.
(5). Qudrat Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari. ”Fan”, 2005, 89–123-betlar.
(6). Tarjima va milliy kolorit. https://uz.m.wikipediya.org (1–4-betlar).
(7). O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
(8). Shofqarov A.M. O‘zbek tilida badiiy takror. T., “Fan va texnologiya”, 2019, 118-bet.

Каримова Феруза Иноятовна (старший преподаватель кафедры «Узбекского языка и литературы,» Андижанский государственный Технический институт, Узбекистан)

СЛОВООБРАЗОВАНИЕ И АНАЛИЗ СЛОЖНЫХ СЛОВ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. *В статье проводится сравнительное исследование словообразования сложных глаголов в английском и узбекском языках. Рассматриваются различные модели образования сложных глаголов, их продуктивность и типологические особенности в обеих языковых системах. В английском языке выделяются десять моделей сложных глаголов, наиболее продуктивными среди которых являются модели N+V (существительное+глагол) и Adj+V (прилагательное+глагол). В узбекском языке преобладают две модели: C+Гл. (существительное + глагол) и деепричастие прошедшего. Автор анализирует также семантическую времени+глагол. мотивацию сложных глаголов, выделяя мотивированные, частично мотивированные и немотивированные глаголы в обеих языковых системах. Кроме того, в статье отмечаются различия в способах образования сложных слов: в английском языке выделяют компрессию и словообразование, в узбекском – синтаксико-лексический, синтаксико-морфологический и морфологический способы. Работа подчеркивает важность сравнительного подхода в изучении сложных слов и их роль в лексикологии, что способствует лучшему пониманию структурных и семантических особенностей английского и узбекского языков.*

Ключевые слова: *сложные глаголы, словообразование, модели словообразования, продуктивность, типология языков, словообразовательные модели, мотивированные глаголы, частично мотивированные глаголы, немотивированные глаголы, синтаксико-лексический способ, синтаксико-морфологический способ, морфологический способ, лексикология, сравнительное языкознание, английская лексика, узбекская лексика, структура сложных слов, семантический анализ.*

Karimova Feruzaxon Inoyatovna (Andijon davlat Texnika instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasining katta o‘qituvchisi)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARINING MURAKKAB SO‘ZLARINI SHAKLLANTIRISH VA TAHLIL QILISH

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida murakkab fe’llarning so‘z shakllanishini qiyosiy o‘rganish olib boriladi. Ikkala til tizimida murakkab fe’llarning shakllanishining turli xil modellari, ularning mahsuldorligi va tipologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Ingliz tilida murakkab fe’llarning o‘nta modeli ajralib turadi, ular orasida eng samarali modellar N+v (ism+fe’l) va Adj+V (sifat+fe’l). O‘zbek tilida ikkita model ustunlik qiladi: C+GL. (ism+fe’l) va o‘tgan zamon fe’li+fe’l. Muallif, shuningdek, ikkala til tizimidagi motivatsiyalangan, qisman motivatsiyalangan va motivatsiyasiz fe’llarni ajratib, murakkab fe’llarning semantik motivatsiyasini tahlil qiladi. Bundan tashqari, maqolada murakkab so‘zlarni shakllantirish usullaridagi farqlar qayd etilgan: ingliz tilida siqilish va so‘z shakllanishi, o‘zbek tilida sintaktik-leksik, sintaktik-morfologik va morfologik usullar ajralib turadi. Asar ingliz va o‘zbek tillarining tarkibiy va semantik xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan murakkab so‘zlarni o‘rganishda qiyosiy yondashuvning ahamiyatini va ularning leksikologiyadagi rolini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *murakkab fe’llar, so‘zlarni shakllantirish, so‘zlarni shakllantirish modellari, mahsuldorlik, til tipologiyasi, so‘zlarni shakllantirish modellari, motivatsiyalangan fe’llar, qisman motivatsiyalangan fe’llar, motivatsiz fe’llar, sintaktik-leksik usul, sintaktik-morfologik usul, morfologik usul, leksikologiya, qiyosiy tilshunoslik, ingliz lug‘ati, o‘zbek lug‘ati, murakkab so‘zlarning tuzilishi, semantik tahlil.*

Karimova Feruzaxon Inoyatovna (is a senior lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature at the Andijan State Technical Institute. Uzbekistan)

WORD FORMATION AND ANALYSIS OF COMPLEX WORDS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. *The article provides a comparative study of the word formation of complex verbs in English and Uzbek. Various models of the formation of compound verbs, their productivity and typological features in both language systems are considered. There are ten models of compound verbs in English, the most productive of which are the N+V (noun+verb) and Adj+V (adjective+verb) models. Two models prevail in the Uzbek language: C+Gl. (noun+verb) and the past participle + verb. The author also analyzes the semantic motivation of complex verbs, highlighting motivated, partially motivated and unmo+tivated*